

**“MAVLUDI SHARIF” DA PAYG'AMBAR MUHAMMAD
ALAYHISSALOMGA VAHIY KELISHINING BAYON ETILISHI**

Muxitdinova Gulbahor Rustamdjanovna

Namangan davlat universiteti stajor o'qituvchisi

Tel:90-279-73-79

Telegram:91-342-45-31

Annotatsiya: maqolada islom dini Payg'ambari Muhammad (s.a.v.) ning hayotlariga doir ma'lumotlar, jumladan ul Zoti sharifga ilk vahiy kelishi hodisasi bayon etilgan. Shuningdek, namanganlik shoir Mulla Yo'ldosh Xilvatiyning “Mavludi sharif” asaridagi vahiy kelishi hodisasiga bag'ishlangan bob tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Farishta, vahiy, Jabroil alayhissalom, Ruhul amin, qo'ng'iroq ovozi, vahiy qiyofasi, oyati kalima, ikki olam sarvari.

**ОБЪЯСНЕНИЕ ОТКРОВЕНИЯ ПРОРОКУ МУХАММЕДУ
В «МАВЛУДИ ШАРИФ»**

Мухитдинова Гульбахор Рустамджановна

Преподаватель-стажер Наманганского государственного университета

Телефон: 90-279-73-79

Телеграм: 91-342-45-31

Аннотация: в статье собраны сведения о жизни Пророка Мухамеда (мир ему и благословение Аллаха), в том числе о событии первого откровения Зати Шарифу. Также проанализирована глава, посвящённая событию откровения в произведении «Мавлуди шариф» наманганского поэта Муллы Юлдаша Хилвати.

Ключевые слова: ангел, откровение, Гавриил, Рухул Амин, звонкий голос, образ откровения, слово аята, властитель двух миров.

**EXPLANATION OF THE REVELATION TO THE PROPHET
MUHAMMED IN “MALVUDI SHARIF”**

Muxitdinova Gulbahor Rustamdjanovna

Namangan State University teacher

[Tel:90-279-73-79](tel:90-279-73-79)

Telegram:91-342-45-31

Abstract: the article contains information about the life of the Prophet Muhammad (peace and blessings of Allah be upon him), including the event of the first revelation to Zati Sharif. The chapter dedicated to the event of revelation in the work

“Mavludi Sharif” by the Namangan poet Mulla Yuldash Khilvati is also analyzed.

Key words: angel, revelation, Gabriel, Ruhul Amin, ringing voice, image of revelation, word of the verse, ruler of two worlds.

KIRISH

Islom dinining vujudga kelishi, bu dinning ulus orasida tarqalishi borasida qadimgi manbalarda ko'p ma'lumotlar keltiriladi. Arab olimlari tomonidan bildirilgan fikrlar, keltirilgan asosli tarixiy manbalar keyinchalik boshqa millat vakillari tomonidan fors-tojik, turkiy, o'zbek tillariga tarjima qilingan va butun dunyo bo'ylab tarqalgan. Ana shu manbalarning aksariyatida ushbu din elchisi, Allohning Habibi bo'lmish Payg'ambar Muhammad alayhissalom haqlarida juda ko'plab go'zal fikrlar bildirilgan. Islom dini uzoq tarixiy davrni bosib o'tgan bo'lib, bu dinning elchisi Muhammad alayhissalom nomi juda ko'plab tarixiy manbalarda uchraydi. Islom ahli Muhammad alayhissalomga, islom diniga imon keltirish, ularga itoat etish, dinni targ'ib qilgan ul zotning hayotlari, bosib o'tgan yo'llari, go'zal fazilatlar va sifatlarini o'rganish muhim sanaladi. Shunday ekan, bu dinga e'tiqod qilgan inson borki, o'zini musulmon deb ataydi va shu orqali o'zining Muhammad alayhissalomga bo'lgan cheksiz hurmat-ehtiromi va mehr-muhabbatini ifodalaydi. O'sha davrlardayoq, ya'ni Rasululloh alayhissalom tiriklik chog'laridayoq u kishining yonlarida yurgan sahobalar u zotning hayotlarini o'rganishga harakat qilganlar va u kishiga oid bo'lgan barcha narsalarni ko'z qorachig'idek asraganlar. Ul zotning bemisl odob-axloqlari, go'zal xulqlari haqida Vahb ibn Munabbah, Urva ibn Zubayr kabi imomlar kitoblar yozganlar. Tarixdan bizga ma'lumki, vaqt o'tishi bilan musulmonlar safi kengayib bordi. Turli xalq, millat va elat vakillari islom dinini qabul qilib, musulmon bo'la boshladi. Dunyoda musulmonlar ko'paygani sari Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) ga bo'lgan qiziqish ortib bordi. Islom dunyosining mashhur olimlaridan Ibnul-Javziy, Imom Navaviy, Ibnul-Jazariy, Ibn Hajar al-Asqaloni, Jaloliddin as-Suyuti, Ibn Hajar al-Haytamiy, Ali al-Qoriy, Abdurahmon ibn Yoqub Chalabiy, Imom Ja'far Barzanjiy kabi olimlar mazkur mavzuda ko'plab asarlar yozganlari tarixdan ma'lum. Birgina Abdurahmon as-Suyuti ash-Shofe'iyni o'zi 600 ga yaqin asarlar meros qoldirgan. Ja'far al-Barzanjiyning “Iqd ul-javhar fiy mavlid an-Nabiy al-azhar” asari o'zbek tilida qisqaroq qilib “Mavlid an-Nabiy” nomi bilan yuritilgan. Uning ikkita mashhur sharhi bo'lib, kitobga Misrda molikiylar muftiysi bo'lgan Muhammad ibn Ahmad Alish “al-Qavl ul-munjiy 'alo mavlid al-Barzanjiy” degan sharhni 1269- hijriy yilda Rabi' us-soniy oyida yozib tugatgan. Sal keyinroq esa, ya'ni, 1279-yilda Sha'bon oyida Ja'far al-Barzanjiyning avlodidan bo'lmish, Madinai munavvarada Shofi'iylar muftiysi bo'lgan Ja'far ibn Ismoil ibn Sayyid Zaynuddin ibn Sayyid Ja'far al-Barzanjiy degan zot “al-Kavkab al-anvar 'alo Iqd al-javhar” nomli katta sharh yozgan. Bu ikki sharh ham Misrda 1310-yilda “Al-Maymaniyya” matbaasida nashr etilgan. Bizning yurtimizda ham ushbu din haqida

ko'plab ulamolar qimmatbaho asarlar bitganlar. Imom Buxoriy, At-Termiziy, Nosiruddin Rabg'uziy, Sulaymon Boqirg'oniy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Alixonto'ra Sog'uniiy, Abdurauf Fitrat, Mulla Yo'ldosh Xilvatiylar, zamondoshlarimizdan esa Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Shayx Abdulaziz Mansur, Ismatilla Abdullayev, Najmiddin Komilov, Muslihiddin Muhiddinov, Abdulhamid Qurbonov, Jahongir Turdiyev, Adham Ibrohim o'g'li, Qosimjon Sodiqov, Fayzulla Iskandarov, Dilfuza Sarvarova, Ozoda Boltaboyeva kabi olimlar o'z tadqiqotlarida islom dini, uning elchisi Muhammad alayhissalom haqlarida ma'lumotlar keltiradilar.

Dinlarning so'nggisi va eng mukammali sanalgan islom olamida farishtalar obrazi alohida ahamiyat kasb etadi. Diniy manbalarda yer yuzida ko'plab farishtalarning mavjudligi, ularning har birlariga o'ziga xos vazifalar yuklatilganligi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Jumladan, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining ma'lumot berishlaricha, Allohning farishtalariga iymon keltirish ularning borligiga iymon keltirish bilan tugal bo'lmaydi. Farishtalarga tugal iymon Alloh taolo va Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam aytganlaridek bo'lishi kerak. Ularning vasflariga, xizmatlariga va xususiyatlariga iymon keltirish lozim.

Alloh taolo Qur'oni karimda farishtalarning sifatlari haqida bir qancha oyatlar nozil qilgan. Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam ham o'z hadisi shariflarida farishtalar haqida siz bilan bizga kerakli ma'lumotlarni berganlar. Biz ana shu sifatlarga iymon keltirmog'imiz kerak. Qur'oni karim va sunnati mutohhara farishtalarning bir necha sinflarini bayon qilgan. Farishtalar maxluqotlarning bir qancha turlariga vakil qilinganlar. Alloh taolo tog'larga bir turli farishtalarni, shuningdek, yomg'irga yana bir toifasini vakil qilgan. Bachadonga muvakkal qilingan farishtalarga bir tutam lahmni u to odam bo'lgunicha olib borish topshirilgan. Jon olishga, shuningdek, qabrda savol-javob qilishga ham muayyan farishtalar vakil qilingan. Falaklarga, quyoshga, oyga, jannatga, do'zaxga alohida-alohida farishtalar vakil qilingan. Farishtalar Allohning borliqdagi askarlaridir. Farishtalarning boshliqlari uchta. Jabroil, Mikoil va Isrofil, ular hayotga vakil qilinganlar. Jabroil alayhissalom qalblar va ruhlar hayoti bo'lmish vahiyga vakildir. Mikoil alayhissalom yerning hayoti bo'lmish yomg'irga vakildir. Isrofil alayhissalom o'limdan keyingi hayotga sabab bo'ladigan surni chalishga vakil qilingan. Ular Allohning maxluqotlaridagi va ishlaridagi rasullaridir. Alloh bilan bandalari orasidagi elchilaridir. Qur'oni karimda farishtalarning ba'zi vazifalari haqida ma'lumotlar kelgan. Biz uchun bu masalada oyati karimalar asosiy manbadir.

1. Alloh taoloning kalomi va hukmini U Zotning bandalariga yetkazish vazifasi.
2. Arshni ko'tarib turish vazifasi.
3. Jannat ishlari va Jannat ahlining xizmatlarini qilish vazifasi.
4. Do'zax ishlarini qilish va uning ahlini jazolash vazifasi.
5. Odamlarning ishlarini kuzatib, amallarini yozib borish vazifasi.

6. Insonni doimiy ravishda muhofaza qilib yurish vazifasi.

7. Ruhlarini qabz qilish (jonlarni olish) vazifasi [Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf 1].

“Vahiy” so'ziga ta'rif berishda Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlari quyidagicha yondoshadilar. Bu so'zning lug'atda tezkor va maxfiy xabar yo'llash ma'nosini bildirishi, shuningdek, insondagi tabiiy ilhom, hayvonlardagi g'ariziy ilhom – instinkt, ramz va imo yo'li bilan tezkor ishora, shayton vasvasasi va yomonlikni chiroyli ko'rsatish, Alloh taoloning farishtalarga buyrug'i kabi ma'nolari mavjudligini e'tirof etadilar [Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, 2].

Ulamolar vahiy tushunchasi orqali Alloh taoloning bandalari ichidan o'zi tanlab olgan shaxsga o'zi iroda qilgan hidoyatni tez va maxfiy ravishda bildirishi ekanligini ta'kidlaydilar. Muborak Qur'oni karimning Shuro surasi 51-oyatida Allohning bashar bilan gaplashmog'i bo'lmaganligi, faqat vahiy bilan yoki parda ortidan, yoxud elchi yuborib, yoki ul Zotning izni ila xohlagan narsasini vahiy qilishi haqida bayon etiladi [Qur'oni Karim, Shuro surasi, 51-oyat].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur mavzuni tadqiq etishda tarixiy, qiyosiy, badiiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, tarixiy metod orqali qadimgi yozma yodgorliklardan islom dunyosining mashhur olimlaridan Imom Buxoriy hadislari, Ahmad Yassaviy hikmatlari, shuningdek, arab tarixchilari Ibnul-Javziy, Imom Navaviy, Ibnul-Jazariy, Ibn Hajar al-Asqaloni, Jaloliddin as-Suyutiy, Ibn Hajar al-Haytamiy, Ali al-Qoriy, Abdurahmon ibn Yoqub Chalabiy, Imom Ja'far Barzanjiylarning ilmiy meroslari o'rganildi.

Qiyosiy metod asosida yuqoridagi olimlarning mavzu doirasidagi fikr-mulohazalari o'rganilib, o'zaro qiyoslandi.

Badiiy metod orqali namanganlik shoir Mulla Yo'ldosh Xilvatiy qalamiga mansub “Mavludi sharif” asarining ma'lum qismi, ya'ni Payg'ambar Muhammad alayhissalomga ilk vahiy kelishi to'g'risidagi bob tahlil qilindi. Asar tili, g'oyasi, mazmuni, uning o'ziga xos xususiyatlari, shoirning ijodiy mahorati har tomonlama tadqiq etildi.

Shu o'rinda yurtimiz olimlaridan Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, Shayx Abdulaziz Mansur, Usmonxon Alimov, Ismatilla Abdullayev, Najmiddin Komilov, Muslihiddin Muhiddinov, Abdulhamid Qurbonov, Jahongir Turdiyev, Adham Ibrohim o'g'li, Qosimjon Sodikov, Fayzulla Iskandarov, Dilfuza Sarvarova, Ozoda Boltaboyeva kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida islom dini, uning elchisi Muhammad alayhissalom haqlarida keltirilgan ma'lumotlar o'rganildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Adham Ibrohim o'g'lining “Eng komil inson” asarida mazkur mavzuga alohida o'rin ajratilgan. Kitobda islom dini Payg'ambari Muhammad alayhissalomga qirq yoshlarida vahiy kelishi hodisasi quyidagicha bayon etiladi: “Kunlarning birida,

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam o'sha vaqtda 40 yosh edilar, o'sha g'orda Alloh taologa ibodat qilayotgan edilar. To'satdan bir farishta kelib u zotni qattiq quchdilar. Ularga: “O'qi!” dedi. “O'qishni bilmayman”, dedilar. Shu kalimalar orqali bashariyatga Alloh taoloning rahmati tusha boshladi...Bu kunda Alloh Ruhul amin – farishtalarning eng afzali va sayyidi bo'lgan Jabroil alayhissalomga maxluqotlarining sayyidi va eng afzali hisoblanmish MPuhammad alayhissalomning oldilariga tushishga amr qildi. Payg'ambarimiz bu oyatlarni eshitdilar va zavjalari Hadicha roziyallohu anhoning uyiga qaytishni xohlab qoldilar. Yo'lda keta turib Jabroil alayhissalomni ikkinchi marta, aniq ko'rdilar. Aytishlaricha, uning har bir ufqni berkituvchi 600 ta qanoti bor edi. U o'zini Jabroil alayhissalom – Ruhul Amin ekani xabarini berdi va : “Haqiqatan siz, ey Muhammad, bu ummatning Nabiysi va Rasulisiz”, deb aytdi” [Adham Ibrohim o'g'li, 5;59].

Diniy ulamolardan biri Usmonxon Alimovning “Rasululloh sollallohu alayhi vassallamning muborak vasiyatlari” kitobida islomiy hidoyatning butun insoniyatga qarata aytgan birinchi xitobi, butun bashariyatni ilmga chaqirishda barcha hidoyat va rahmatning manbai bo'lmish “Alloh nomi bilan o'qi!” deyilishi aytiladi. Islom butun o'rganilgan ilmning hidoyat va rahmatga mayoq bo'lishini, uning razolat va buzg'unchilikka hammol bo'lmasligini istashi, ilohiy vahiyni haqiqatini payg'ambarlardan boshqa hech kim bilmasligi, ularning, ya'ni vahiylarning yetti martabasi borligi e'tirof etiladi:

1. Sodiq (rost) tush.
2. Hech qanday vositasiz Rasululloh (s.a.v.)ning qalblariga jo bo'lishi.
3. Farishtaning inson qiyofasida kelishi.
4. Vahiy qo'ng'iroq ovozi kabi kelishi.
5. Jabroil alayhissalomning o'z qiyofasida ko'rinishi.
6. Me'rojda bo'lgan paytlarida besh vaqt namoz farzligi vositasiz bildirilganligi.
7. Yuzma-yuz pardasiz gaplashish [U.Alimov, 6].

Namanganlik shoir Mulla Yo'ldosh Xilvatiyning 1895 yilda bitilgan “Mavludi sharif” asarida ham islom dini Payg'ambari Muhammad alayhissalomga qirq yoshga kirgan chog'larida Alloh taolo tomonidan vahiy yuborilganligi ifodalanadi. Xilvatiy mazkur asarni yozishdan avval tushida Muhammad sollallohu alayhi vassallamni ko'radi. Shundan so'ng ustoz Langariydan fotiha olib, ushbu asarni yozishga kirishadi. Asar bosh qahramoni islom dini Payg'ambari Muhammad alayhissalomdir. Ul Zoti sharifning hayotlarida sodir bo'lgan barcha voqea-hodisalar

ma'rifatparvar shoir tomonidan o'zgacha mahorat bilan tilga olinadi. Kitobda Mavlud kechasi, ya'ni Payg'ambar alayhissalomning dunyoga kelish voqealari, Isro va Me'roj kechasi, ya'ni Payg'ambar alayhissalomning Me'roj qilganliklari voqealari batafsil tasvirlangan. Vahiy kelishi hodisasi ham Xilvatiy tomonidan qalamga olinar ekan, ular quyidagi so'zlar bilan boshlanadi. Olamga sharaf burji kelganligi, u butun

olamga sadaf gavhari bo'lib taralganligi aytiladi:

Tug'ulub ul axtari burji sharaf,

Gavharig'a qildi olamni sadaf [Xilvatiy, 4;84].

Muallif islom dini Payg'ambari Muhammad alayhissalom dunyoga kelganlaridan so'ng butun olam yorishib, ravshan tortib ketganligini, ushbu nur butun dunyoni yoritganligini e'tirof etib, Ul Zoti sharifni zamonlar shohi deb maqtaydi:

Bora-bora nur ila ushbu jahon

Ayladi ravshan o'shal Shohi zamon [Xilvatiy, 4;84].

Asarda Muhammad alayhissalomning vanihoyat muborak qirq yoshga qadam qo'yganliklari quyidagicha ta'riflanadi:

Qissa ko'tah, oxir ul Baxri karam

Qirq yosh ustig'a qo'ydilar qadam [Xilvatiy, 4;84].

Diniy manbalarda farishtalarning a'losi bo'lmish Jabroil alayhissalomga nisbatan "Ruhul amin" ta'rifi beriladi. Xilvatiy aynan qirq yoshga to'lgan chog'larida oxir zamon Payg'ambari Muhammad alayhissalomga Alloh taolo tomonidan Ruhul aminning vahiy keltirganligini tasvirlaydi:

Chunki qildi hukm Rabbul olamin,

Vahiy kelturdi anga Ruhul amin [Xilvatiy, 4;84].

Shu tariqa vahiy keltirilib, Jabroil alayhissalom Muhammad alayhissalomga Yaratganning behad salomlarini yetkazadi:

Aydilar ul dam Rasulg'a Jabrail:

"Ko'p salom aydi sanga Rabbi jalil" [Xilvatiy, 4;84].

Nubuvvat, nabiylk tushunchalari orqali islomda payg'ambarlik maqomiga ta'rif beriladi. Muallif Payg'ambar Muhammad alayhissalomning boshlariga nubuvvat tojining qo'yilganligini, ya'ni Ul zoti sharifni Payg'ambar etib tanlanganliklarini, osmon uzra Me'roj qilishlari tayinlanganligini bayon etadi:

Boshinga qo'ydi nubuvvat tojini,

Arsh uza qildi ta'yin me'rojini [Xilvatiy, 4;84].

Diniy manbalarda muqaddas Qur'oni karimning nozil bo'lishi haqida ko'p ma'lumotlar keltirilgan. Xilvatiyda ham mazkur jarayon tilga olinib, Payg'ambar alayhissalomga Qur'oni karim nozil bo'lishi orqali Ul Zoti sharifning maqsudlari hosil bo'lganligi e'tirof etiladi:

Ham yana Qur'onni nozil ayladi,

Harchi maqsudingni hosil ayladi [Xilvatiy, 4;84].

Shoir tilidan mazkur hodisa benihoya go'zal mo'jiza ekanligi, Payg'ambar Muhammad alayhissalomga nisbatan behad iltifotlar ko'rsatilganligi ifodalanadi:

Lutf qildi benihoyat mo'jizot,

Ayladi behaddi g'oyat iltifot [Xilvatiy, 4;84].

Har dam rivojini baland qilib, jumla jahonni o'z diniga, ya'ni islom diniga

mustamand qilganligi tasvirlanadi:

Ayladi har dam rivojini baland,

Jumlani dinig'a qildi mustamand [Xilvatiy, 4;84].

Muhammad alayhissalom islom dini elchisi, Allohning rasuli sifatida barchani ushbu dinga kirishga da'vat qilganliklari, el-ulus ul Zoti sharifni ulug'lab, shomu sahar xizmatlariga kamarbasta bo'lganliklari bayon etiladi:

Qildi omu xosni anga g'ulom,

Bo'ldilar xizmatlarida subhu shom [Xilvatiy, 4;85].

Boshqa Payg'ambarlarga berilmagan mo'jizot, ya'ni islom dini vakillari, mo'min-musulmonlarning shafolat etilishi ham aynan din elchisi Rasuli akram tufayli ekanligi e'tirof etiladi:

Sha'ni oliylarki Haq jalli a'lo

Etti ul koni shafogatg'a ato [Xilvatiy, 4;85].

Islom dini Payg'ambari Muhammad alayhissalomning mehrlari juda ziyoda bo'lib, barchaga manzur bo'lganliklari haqidagi satrlar keltiriladi:

Hojati izhor emas, ma'lumdur,

Mehr nuri barchag'a mafhumdur [Xilvatiy, 4;85].

Shu inson, ya'ni Muhammad alayhissalom bu dunyoga kelganliklari vajidan mavludning bayon etilganligi, ularga xos bo'lgan mo'jizalarning muallif zaboni orqali aytilganligi ifodalandi:

Chunki andak topti mavludi bayon,

Mo'jizotin ayladik viridi zabon [Xilvatiy, 4;85].

Xilvatiy ushbu voqeani bayon etishdek baxtga musharraf bo'lganligini ta'riflaydi:

Ayladuk andin ham andak qissaye,

Zarraye zarrotidin bir hissaye [Xilvatiy, 4;85].

Manbalarda do'zax o'ti, bandalarning unda yonishi haqida ko'p ma'lumotlar keltiriladi. Xilvatiy o'zining ushbu kitobini o'qigan kimsa borki, ana shu do'zax o'tidan najot topishini ta'kidlab, islom dinining suyukli Payg'ambari, Allohning Habibiga tinimsiz ravishda salavotlar aytishga, ularni shunchaki aytibgina qolmay, ishq ila, dard ila aytishga da'vat etadi. Zero Muhammad alayhissalomni ulug'lab, salavot aytgan inson do'zax o'tidan najot topadi:

Gar o'qursiz bo'lasiz o'tdin najot,

Ishq ila, dar ila ayting as-salot [Xilvatiy, 4;85].

So'nggi misralarda esa Payg'ambar Muhammad alayhissalomga quyidagi salavotlar keltiriladi:

As-salotu vas-salomu alayka, yo Rasulalloh!

As-salotu vas-salomu alayka, yo Habiballoh!

As-salotu vas-salomu alayka, yo Xayra xalqilloh [Xilvatiy, 4;85]!

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, islom dinining vujudga kelishi, dunyo bo'ylab tarqalishi haqidagi manbalarning aksariyatida farishtalar, vahiyalar haqida ma'lumotlar, turli voqea-hodisalar bayonlari keltirilgan. Islom dini Payg'ambari Muhammad sollallohu alayhi vassallamga yigirma uch yil davomida turli ko'rinishdagi vahiyalar kelib turganligi ifodalangan. Vahiyalar kelishi, ularning quyidagi yetti martabasi haqida ma'lumotlar keltiriladi:

1. Sodiql (rost) tush.
2. Hech qanday vositasiz Rasululloh (s.a.v.)ning qalblariga jo bo'lishi.
3. Farishtaning inson qiyofasida kelishi.
4. Vahiy qo'ng'iroq ovozi kabi kelishi.
5. Jabroil alayhissalomning o'z qiyofasida ko'rinishi.
6. Me'rojda bo'lgan paytlarida besh vaqt namoz farzligi vositasiz bildirilganligi.
7. Yuzma-yuz pardasiz gaplashish.

“Mavludi sharif” asari shu ma'noda diniy manba sifatida jiddiy ahamiyat kasb etuvchi noyob asar hisoblanadi. Muallif Mulla Yo'ldosh Xilvatiy voqealarni bayon etishda aniqlik, soddalikka ko'proq e'tibor qaratadi. Kitobni o'qigan kishi o'sha davrda sodir bo'lgan voqea-hodisalarga beixtiyor o'zi guvoh bo'lgandek tuyuladi. Chunki so'zlar ifodasi, misralarning mazmundorligi, fikrlar teranligi inson qalbini junbushga keltirib, voqealarni yanada jonlantiradi.

Namangan zaminida tug'ilib, voyaga yetgan, Boborahim Mashrab, Is'hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda, Nodim Namangoniy kabi buyuk allomalar qatoridan joy olgan hamyurtimiz Mulla Yo'ldosh Xilvatiy ijodi hali u qadar chuqur o'rganilmagan. Bizning oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biri aynan mana shunday ma'rifatparvar bobolarimiz ijodiy merosini o'rganish, ularni asrab-avaylashdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shayx Muhammad Sodiql Muhammad Yusuf. Mukammal saodat yo'li. Toshkent: 2022-yil.
2. Shayx Muhammad Sodiql Muhammad Yusuf. Qur'on ilmlari. Toshkent: 2021-yil.
3. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim. Shuro surasi, 51-oyat.
4. Mulla Yo'ldosh Xilvatiy. Mavludi sharif. Toshkent: 2021-yil, 84-85-betlar.
5. Adham Ibrohim o'g'li. Eng komil inson. Toshkent: 2022-yil, 58-59-betlar.
6. Usmonxon Alimov. Rasululloh sollallohu alayhi vassallamning muborak vasiyatlar. Toshkent: 2019-yil.
7. Shamoilu mustafo. Payg'ambar sollallohu alayhi vassallamga xos maqtalagan maqom va shafolat, Islom.uz, 2021.
8. Qomus.Info. Onlayn ensiklopediya. Xilvatiy, 2021.
9. O. Boltaboyeva. XX- asr boshlarida Namanganda adabiy harakatchilik. (PhD) Dissertatsiya, Toshkent: 2019.
10. Mulla Yo'ldosh Xilvatiy. Devon, G'. Orifxonov. Toshkent: 1907.